

MASOFAVIY O'QITISH TIZIMLARI, TEXNOLOGIYALARI VA
ULARNING QATNASHUVCHILARI

BuxDu k.f.f.d. PhD.

Abduraxmonov S.F.

BuxDU tayanch doktoranti

Sattorova S.Z.

BuxDU 4 bosqich talabasi

Karimov K.S.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada masofaviy ta'lim, masofaviy o'qitish tizimlari, texnologiyalari va unda qatnashuvchilar interaktiv va interaktiv bo'lmagan texnologiyalar haqida yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Web muhit, masofaviy ta'lim, interaktiv texnologiyalar, avtor, metodist, ruxshunos, administrator, dokumentoved.*

DISTANCE LEARNING SYSTEMS, TECHNOLOGIES AND THEIR
PARTICIPANTS

Abstract: *This article provides sufficient information about distance education, distance learning systems, technologies and participants interactive and non-interactive technologies.*

Key words: *Web environment, distance education, interactive technologies, author, methodist, psychologist, administrator, documented.*

СИСТЕМЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ, ТЕХНОЛОГИИ И ИХ
УЧАСТНИКИ

Аннотация: *В этой статье представлена достаточная информация о дистанционном образовании, системах дистанционного обучения, технологиях, а также задействованных интерактивных и неинтерактивных технологиях.*

Ключевые слова: *Web среда, дистанционное образование, интерактивные технологии, автор, методист, психолог, администратор, документированный.*

Ma'lumki, har bir ta'lim muassasasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual



axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har xil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari, shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

Masofaviy ta'lim - zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma'lum fan yoki soha bo'yicha o'qitish shakli bo'lib, an'anaviy ta'limga nisbatan o'ziga xos avzalliklarga ega. U bir vaqtning o'zida jamoaning keng qatlamiga ta'lim berishda qo'l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli o'quvchilarga berilishi zarur bo'lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko'payib bormoqda. Bu axborotlarni talabalarga an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish murakkab vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miqiyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda.[1]

Masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo'ldosh, televideniye, radio, kompyuter aloqa va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlar majmuidan iborat.

Masofaviy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning samaradorligini oshirishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxsining muntazam aloqasini ta'minlash asosiy vazifa bo'lib hisoblansa quyidagi ta'limiy imkoniyatlarni qo'lga kiritish mumkin:

- masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;
- pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berish imkoniyati bor;
- metodologik, nazariy, uslubiy bilimlarni egallashga imkon yaratadi;
- bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi;
- ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkonini beradi;
- zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatini amalga oshirish borasida samarali qo'llaniladi;
- axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda, axborot olish va undan foydalanish samaralarini hosil qilish borasidagi ishlanmalarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.



Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan ortiqcha sarf - xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin.

Masofaviy o'qitishga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot olish, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar;

mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari ;

an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lumot olaolmagan yoshlar;

o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;

ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;

markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;

erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;

jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;

harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: **INTERAKTIV** texnologiyalar:

Internet masofaviy ta'lim portali.

Video va audio konferentsiyalar.

Elektron pochta orqali ta'lim.

Internet orqali mustaqil ta'lim olish.

Uzoqdan boshqarish sistemalar.

Onlayn simulyator va o'quv dasturlar.

Test topshirish sistemalari.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.

Televizion va radio ko'rsatuvlar.

Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion holatda bir biri bilan bog'lab ta'lim olish yo'li. Video va audio konferentsiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi. Internet orqali mustaqil ta'lim olish -



bu Internetda joylashgan ko'pgina saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li.

Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshqa ko'rinishida) jo'natib qabul qilishimiz mumkin. Uzoqdan boshqarish sistemalar - murakkab dastur, sistema va uskunalarni real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yo'li. Uzoqdan boshqarish sistemalarning asosiy vazifasi o'quvchiga faqatgina amaliy bilimlarni berish. [4]

Simulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali o'quvchilarga off-layn holatida olish yo'li. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qullanilyapti. Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish uning asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baholash.

Internetning masofaviy ta'lim portali bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so'zlar bilan o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida elektron on-layn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni joylashtirish va o'quvchilarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish.[1]

Masofaviy ta'limni jarayonida quyidagilar qatnashishi shart, bular- masofaviy kurs avtor, metodist, o'qituvchi (tyutor, koordinator), ruxshunos, administrator, dokumentovod, telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi hamda o'quvchilar.

□ Avtor - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirllovchi shaxs.

□ Metodist - masofaviy kurs avtoriga konsultatsiyalar beruvchi va kursni taxrirllovchi shaxs.

□ O'qituvchi - o'quvchilar bilan o'qish jarayonida muloqotda bo'luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

□ Ruxshunos - o'qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.

□ Administrator - o'quvchilarni qabul qilish va o'qishdan chetlash masalalarini echuvchi va malakali o'qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.

□ Dokumentovod - hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.



□ Telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi - dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.

□ O`quvchilar - o`quv jarayonida qatnashuvchi shaxs.

O`quv jarayoninin tashkil qilishda esa albatta quyidagi qadamlarni bajarishimiz zarur bo`ladi:

Kurs maqsadlarini aniqlash. Qaysi bilimlarni (mavzular, fan va ...) va kimlar uchun o`qitish kerak.

O`qish metodlarini tanlash. O`quv jarayoni davomida bilimlar va kunikmalar darajasini diagnostika hamda tekshirish manbalarini va usullarini aniqlash kerak.

O`quv materialga metodik talablarini ishlab chiqarish. Yangi bilimlarni berish usullarini va hajmlarni aniqlash kerak. [3]

Darslar jadvalini ishlab chiqarish. Butun kursni bir nechta modullarga bo`lish, har bitta modul tugallashidan keyin o`quvchi tomonidan qanaqa bilimlarga ega bo`lishini aniqlash kerak.

□ O`quv jarayonini monitoringni tashkil qilish.

□ Tekshiruv jarayonlarni rejalashtirish. O`quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish.

□ O`quv jarayoni natijalarini prognozlashtirish.

□ Natijalarni aniqlash va taxlil qilish.

“Ta'limda multimedia tizimlari va masofaviy o`qitish metodlari” modulining vazifalari tinglovchilarda:

□ multimedia tushunchasi, multimedia vositalari, multimedaning dasturiy ta'minoti va mahsulotlari, axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va uning qurilmalarini;

□ elektron ta'lim resurslari va ularning turlari;

□ masofaviy o`qitish va uni tashkil qilish usullari;

□ masofaviy ta'lim jarayonini yaratish bosqichlari;

□ masofaviy kurslar yaratishning kontseptual asoslari;

□ masofaviy o`qitish tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasi.[2]

Masofaviy o`qitish barcha ta`lim olish istagi bo`lganlarga o`z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o`qitish jarayonida o`quvchi interaktiv rejimda mustaqil o`quv-uslubiy materiallarni o`zlashtiradi, nazoratdan o`tadi, o`qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o`quv guruhi» o`quvchilari bilan muloqotda bo`ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashov M.Ya., M.Ochilova; “Umumiy kimyo fanidan moodle tizimiga qo'llaniladigan testlar va ulardan foydalanish”. Buxoro Davlat universiteti ilmiy axboroti No2 2018.

2. Ergashov M.Ya. S.Z.Sattorova ; “TEACHING ORGANIC CHEMISTRY IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS USING MODULE TECHNOLOGY”. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 22-04-2023

3. Ergashov M.Y., Ochilova M.K. Umumiy kimyo fanini o'qitishda LMS-Moodle tizimidan foydalanish. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2017, 2-son.

4. Rahimbayeva M. D .Masofaviy o'qitish va “MOODLE” tizimida interaktiv testlarni tuzish asoslari. T. “Makintosh” bosmaxonasi, 2012.

